kichik sanoat zonalari joylashgan hududlarni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, hududlardagi foydalanilmayotgan xom ashyo, mehnat va moliya resurslarini ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish, korxonalar oʻrtasida kooperatsion aloqalarni kuchaytirish natijasida sinergetik samaraga erishishga harakat qilinmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy mamlakatlarda alohida iqtisodiy zonalarni barpo etish va rivojlantirish Oʻzbekistonda barpo etilayotgan kichik sanoat zonalaridan tubdan farq qiladi. Lekin ularni barpo etish va rivojlantirish tajribasining ayrim jihatlarini Oʻzbekiston sharoitiga moslashtirgan holda foydalanish maqsadga muvofiq. Industrial zonalarni barpo etish va rivojlantirish yoʻnalishida O.Axmadeyeva, O.Lyubova, O.Belenov, T.Smolyaninova, Y.Shurchkova, M.Berkovich, N.Antipina, A.Fridman, V.Semenov, N.Vasilenkova, O.Yegorova, S.Kuznetsova, V.Kuznetsov, Ye.Lenchuk, A.Tariverdiyev, V.Gromova kabi xorijiy olimlar ilmiy tadqiqot olib borganlar.

Yuqorida qayd etilgan xorijiy olimlarning asarlarida Rossiya sharoitida industrial parklar va sanoat zonalarini shakllantirish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va ularning nazariy jihatlarini rivojlantirish masalalari oʻrganilgan. Jumladan, S.Kuznetsova va V.Kuznetsovning ishlarida sanoat zonalarini barpo etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari oʻrganilgan [4, 5]. M.Berkovich, N.Antipinaning ishlarida industrial parklarning mulkiy shakli, tarmoq ishlab chiqarishi va boshqa omillarga koʻra tasniflash masalalari va ularning xususiyatlari tahlil qilingan [3]. Industrial parklarning turlari va ularni barpo etishda davlat-xususiy sektor sherikchiligidan foydalanish, parklarni innovatsion rivojlantirish masalalari O.Belenov, T.Smolyaninova va Y.Shurchkovaning ishlarida oʻrganilgan [2].

Oʻzbekistonlik iqtisodchi olimlardan Y.Abdullayev, I.Bakiyeva, S.Gʻulomov, Sh.Bayeva, U.Gafurov, B.Xodiyev, G.Yaxshiboyev, Sh.Mannapova, B.Salimboyev, L.Kopilova, D.Berdimuratov ham mazkur muammoga bogʻliq mavzularda ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirganlar.

Oʻzbekistonlik iqtisodchi olimlar asarlarida asosan kichik biznesni tashkil etish, rivojlantirish va ularni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash masalalari tadqiq etilgan. Jumladan, A.Vahobov, T.Malikov, Sh.Bayeva, S.Gʻulomov, G.Yaxshiboyev va boshqalarning ishlari kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, rivojlantirish va moliyalashtirishga bagʻishlangan. R.Yuldashevning maqolasida kichik sanoat zonalarning hozirgi holati, ularning mamlakatimiz sanoatini rivojlantirish va aholi turmush farovonligini oshirishdagi oʻrni va ahamiyati yoritilgan [10]. Shu bilan birga, tadqiqotchi Sh.Mannapovaning tadqiqotlarida kichik sanoat zonalarida investitsion faollikni oshirish masalalari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tadqiq etilgan [6].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Jahon mamlakatlarida kam rivojlangan va iqtisodiy jihatdan taraqqiy etmagan hududlarda industrial parklar, texnopolislar va sanoat zonalarini tashkil etish orqali rivojlantirish, bu orqali iqtisodiy salohiyat va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, yirik va kichik ishlab chiqarish korxonalari oʻrtasidagi sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish, kichik sanoat zonalari joylashgan hududlardagi investitsion jozibadorlikni oshirish, shu asosda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish hamda aholi bandligini oshirish masalalarining ilmiy tadqiqotiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, kichik sanoat zonalarini barpo etishda innovatsion yondashuvlar, zamonaviy taraqqiyot tamoyillari va tendensiyalarini toʻliq qamrab oluvchi kontseptual modellarni ishlab chiqish, mazkur jarayonlardan davlat iqtisodiy siyosatining muhim dastagi sifatida foydalanish muammolari bu boradagi ilmiy tadqiqot yoʻnalishlaridan hisoblanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishni ilgʻor texnologiya va innovatsiyalar asosida rivojlantirish va ilmsigʻimli, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻyishda industrial zona, park, sanoat zonalarining ahamiyati, ilgʻor xorijiy davlatlar tajribasiga koʻra, yildan yilga ortib bormoqda. Bunday sanoat ishlab chiqarish tuzilmalari AQShda va Yevropa Ittifoqi davlatlarida, Rossiya Federatsiyasida industrial parklar va sanoat zonalari, Italiyada sanoat okruglari, klasterlar, Xitoy Xalq Respublikasida sanoat rayonlari va zonalari sifatida keng tarqalgan. Sotish bozorlarini egallashdagi raqobatning ortib borishi sharoitida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlashning asosiy yoʻli industrial park, zona va sanoat zonalari boʻlib qolmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni samarali rivojlantirishda innovatsion biznes, ya'ni texnopark va biznes inkubatorlarga ham katta e'tibor berilmoqda. Umumiy tomoni, ularni tashkil etish va rivojlantirish davlat va mahalliy hokimiyat tomonidan qoʻllab-quvvatlanadi. Industrial parklarni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash, nafaqat federal darajada, balki mintaqa darajasida ham faol qoʻllab-quvvatlanmoqda. Park hududi infratuzilmasini shakllantirish, energetika obyektlarini barpo etish, muhandislik tarmogʻi, suv ta'minoti va oqava suv tarmoqlarini barpo etish mintaqalar tomonidan (munitsipal organlar) moliyalashtiriladi (1-jadval).



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Industrial parklarning barpo etilishi mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydi, mintaqadagi ijtimoiy masalalarni hal etishga olib keladi. Industrial parklarning barpo etilishi mintaqaga investitsiyani jalb etish va sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishning eng yaxshi usuli sifatida o'rganish mumkin.

Mintaqadagi davlat organlari industrial park orqali mintaqaga katta investitsion loyiha olib kiruvchi yirik kompaniyalarni jalb etishga harakat qiladi. Industrial parklar xalqaro tasnifga ko'ra ikki turga bo'linadi:

- **Grinfild** - hech narsa qurilmagan yer maydoni;
- **Braunfild** – muhandislik va transport kommunikatsiyalari, infratuzilma obyektlari, ishlab chiqarish binolari qurilgan yer maydoni.

1-jadval: Industrial parklarni moliyalashtirish mexanizmlari [8]

| Industrial park turlari | Yer, mulk egasi | Infratuzilma |
|---|---|---|
| Davlat grinfildi | Yer maydoni davlat yoki munitsipal mulki | Infratuzilma davlat byudjeti tomonidan moliyalashtiriladi |
| Xususiy grinfild | Yer maydoni xususiy mulk yoki loyihani amalga oshiruvchi tomonidan yer, yer egasidan ijaraga olingan | Infratuzilma xususiy mablag' hisobidan moliyalashtiriladi, lekin davlat subsidiyasidan foydalanish mumkin |
| Aralash grinfild | Yer maydoni, aktsionerlik jamiyati mulki. Aktsiyalar davlat va xususiy sektor tomonidan bo'lib olingan. Obyektlar davlat-xususiy sektor mablag'i hisobidan sherikchilik asosida barpo etiladi | Infratuzilma obyektlari davlat-xususiy sektor sherikchiligida moliyalashtiriladi. Obyektlarning bir qismi xususiy sektor tomonidan moliyalashtiriladi |
| Davlat braunfildi | Yer maydoni, infratuzilma obyektlari, binolar, inshootlar davlat mulki hisoblanadi | Industrial parkni rivojlantirish, obyektlarni qayta tiklash, infratuzilma obyektlarini modernizatsiya qilish davlat byudjeti mablag'i hisobidan amalga oshiriladi |
| Xususiy braunfild | Yer maydoni va undagi barcha obyektlar xususiy mulk hisoblanadi | Infratuzilma xususiy mablag' hisobidan moliyalashtiriladi, davlat subsidiyasidan foydalanish mumkin |

Grinfildlar ham uch turga bo'linadi: davlat grinfildi, xususiy grinfild va aralash grinfild. Grinfild loyihasiga ko'ra, park yangi, ilgari hech qanday ishlab chiqarish joylashmagan yer maydonida tashkil qilinadi. Ustun tomoni: bino, inshootlar buyurtmachi talabiga mos holda quriladi. Braunfildlar esa davlat braunfildi va xususiy braunfild turlariga bo'linadi. Grinfild va braunfildlarni moliyalashtirish mexanizmlari quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval: Industrial parklarni federal va mintaqa darajasida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash [7]

| Qo'llab-quvvatlash shakli | Federal darajada | Mintaqa darajasida |
|---|---|---|
| **1. Byudjet hisobidan qo'llab-quvvatlash** | | |
| Kredit foiz stavkasini subsidiyalash | | + |
| • Investorlar majburiyati bo'yicha davlat va munitsipal tomonidan kafolatlash | | + |
| **2. Investitsion dasturlar** | | |
| Transport va energetik infratuzilmalarni rivojlantirish dasturlari | + | + |
| **3. Investorlarni qo'llab-quvvatlash** | | |
| Soliq imtiyozlari: foyda solig'i stavkasini pasaytirish; yer va transport solig'idan ozod qilish | | + |
| **4. Korxonalar ehtiyojidan kelib chiqib mutaxassis kadrlar tayyorlash** | + | |
| **5. Parklarni barpo etish va rivojlanishini axborot va maslahat berish orqali qo'llab-quvvatlash** | | + |

Industrial parklarning yirik investorlarni jalb etish bo'yicha raqobat ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi: malakali mehnat resurslari va moliyaviy institutlar mavjudligi, transport va boshqa infratuzilmalarning rivojlanganlik darajasi, energetik resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi va sotish bozorlari yaqinligi. Industrial parklarni barpo etishdan manfaatdor tomonlar: mintaqa hokimiyat organlari, park ixtisosligini belgilovchi yirik investor, rezidentlar va boshqaruv kompaniyasi hisoblanadi. Industrial parklarni barpo etishga bo'lgan asosiy to'siq: qatnashchilarda moliya resurslarining yetishmasligi.



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Rossiya Federatsiyasida o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, park infratuzilma bilan ta’minlangan bo‘lsa, korxonalar 20 foizgacha infratuzilma obyektlariga sarflanuvchi xarajatlarni tejaydi. Investorlar ko‘p hollarda zona infratuzilma bilan ta’minlangan bo‘lmasa, boshqa infratuzilma obyektlari qurilgan mintaqaga ketishi mumkin. Bunday holat mintaqa hokimiyat organlarini zona hududini kerakli qurilmalar bilan ta’minlashda faol harakat qilishga undaydi. Industrial zonalarni barpo etishning samarali usullaridan biri - davlat-xususiy sektor sherikchiligi. Davlat-xususiy sektor sherikchiligi (DXSSh, ingliz tilida: PPP – Publik Private Partnership) bu davlat bilan xususiy sektor o‘rtasida hamkorlik qilish shakli bo‘lib, u muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishga qaratilgan.

DXSShning institutlari sifatida banklar, investitsion fondlar, davlat kompaniyalari o‘rganiladi. DXSShning instrumentlariga quyidagilarni kiritish mumkin: kontsession kelishuv, byudjetdan foydalanish bo‘yicha investitsion kelishuv. DXSShning kontsessiya shaklidan ko‘proq infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda foydalaniladi. Masalan, ijtimoiy, kommunal, transport va energetika sohalarida. Kontsessiya xususiy mablag‘ni loyihaga tortish orqali byudjet mablag‘ining qisqarishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan, zamonaviy, ilg‘or, qimmat texnologiyani loyihaga kiritish orqali raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi. Boshqa tomondan, shartnoma xususiy sektor va davlatning o‘zaro vazifalari, mas’uliyatini aniq belgilaydi, shu bilan birga, xususiy investitsiyani himoya qilishni ta’minlaydi.

Turkiyada sanoat zonalari – tashkil etilgan sanoat zonalari deb yuritiladi. Kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash maqsadida yuzlab kichik biznes subyektlari yagona sanoat zonasiga birlashtiriladi, lekin ularning yuridik va iqtisodiy mustaqilligi saqlanib qolinadi. Tashkil etilgan sanoat zonalarini barpo etish bo‘yicha qarorni davlat organlari tarmoq uyushmalari va mahalliy tadbirkor uyushmasi bilan birgalikda qabul qiladi. Loyihalar davlat tomonidan moddiy qo‘llab-quvvatlanadi, moliyaviy ta’minoti davlat mablag‘i yoki xususiy mablag‘ hisobidan amalga oshiriladi. Bo‘lajak bino, inshootlar va tsex xonalarini qurish maxsus firmalar tomonidan amalga oshiriladi, qurilib bitgan bino va xonalar kichik korxonalarga sotiladi. Turkiyada birinchilar qatorida tashkil etilgan sanoat zonasiga misol sifatida Istanbul shahriga yaqin joylashgan Tuzla zonasini keltirish mumkin. Zona charm buyumlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Unda 223 ta kompaniya charmni qayta ishlash bilan shug‘ullanadi, 150 ta firma esa charm mahsulotlari uchun qismlar ishlab chiqaradi. Infratuzilma obyektlarining 90 foizi davlat mablag‘i hisobidan moliyalashtirilgan, qolgan 10 foizi bank krediti va shu zonada kelajakda faoliyat yurituvchi tadbirkorlar mablag‘i hisobidan moliyalashtirilgan.

Industrial park nafaqat ishlab chiqarish binolari yig‘indisi, balki haqiqiy kontseptual obyekt hamdir. Industrial parklarning “Yadro”si sifatida yirik ixtisoslashgan ishlab chiqarish kompaniyalarining joylashuvi, infratuzilma obyektlari, ishlab chiqarish bino va inshootlarini qurish va rekonstruktsiya qilishga to‘g‘ri keladi va bu jarayon juda katta mablag‘ talab etadi. Shu sababli, industrial parkning grinfild va braunfild turlari o‘zlarining ustun tomonlari bilan bir qatorda, katta investitsion xarajatlarga olib kelishi mumkin.

Sloveniyadagi “Chemro” industrial park o‘z rezidentlariga bir qator xizmatlar ko‘rsatadi, jumladan: sanoat oqava suvlarini tozalash; texnik xizmat ko‘rsatish; sanoat chiqindilarini utilizatsiya qilish; kimyo laboratoriya xizmati; telekommunikatsiya va pochta xizmati; sanoat obyektlarini loyihalashtirish; qurilish ishlari xizmati; kompyuter xizmati; oshxona va bufetlar.

Milton Park (Angliya) o‘z hududida quyidagi infratuzilma xizmatlarini yo‘lga qo‘ygan: kafe-restoranlar, minisupermarket, badiiy gimnastika xizmati, basseyn, sauna, go‘zallik saloni, avtomobil servisi, elektrichka va asosiy magistralga chiqish yo‘llari, bolalar bog‘chasi, pochta, kimyoviy tozalash, saqlash kamerasi xizmati, kechayu-kunduz internetga bepul kirish xizmati (Wi-Fi).

Industrial park ZETA (Kosta Rika) quyidagi xizmatlarni ko‘rsatadi: ishchi kuchi zaxirasi va ma’lumotlar bazasi, o‘quv markazi, bojxona xizmati, ma’muriy yordam, qo‘riqlash xizmati, internet xizmati, umumiy texnik xizmat ko‘rsatish, tozalash inshootlari, park ishchilari uchun arzon uy-joy, avtomobil qo‘yish shaxobchasi, sog‘liqni saqlash markazi, bank xizmati, bolalar bog‘chasi.

AQShning Mid America Industrial Park odatdagi soliq imtiyozlaridan, foyda solig‘i stavkasini pasaytirish, tezlashtirilgan amortizatsiya, maqsadli soliq imtiyozi (o‘ziga xos muhim ishlab chiqarish, aholini ish bilan ta’minlash), rezidentlar park hududida sotiladigan tushumdan olinadigan soliqdan ozod etiladi, kommunal xizmatlar tarifi ham pasaytiriladi. Mid Amerika Industrial Park o‘z hududida quyidagilarga ega: o‘quv markazlari, sog‘liqni saqlash klinikasi, savdo markazi, avariya xizmati, rezidentlar uchun ikkita gaz kompaniyasi, ko‘rgazma zali, biznes inkubator, mintaqaviy aeroport.

Bulardan tashqari, industrial parklar, ularning tarkibiga kirish qiymati ham har xil. Industrial park uchun tayyorlangan yer maydoni bo‘yicha qarasak, AQShning Nuntsville sanoat parkida 1 gektar yer narxi 62500 AQSh dollaridan 300000 dollargacha (1 kv.m. uchun esa 6,25 dollardan 30,0 dollargacha).

Yaponiyada esa Mutsu-Ogawara Industrial Park (prefekture Aomori), 1 ga. yerning sotib olish narxi 18 mln. rubl yoki 1 kv.m. 5000 iyen. Sanoat yer uchastkalarining ijara narxini qarasak, Tokio mintaqasida 1 gektar yerning ijara narxi - 10000 dollar, Osaka shahri atrofida 1 gektar - 9000 dollar, Harosda - 5500 AQSh dollarini tashkil etadi.

Rossiya Federatsiyasida grinfild parkida 1 kv.m. yer maydoni narxi 35 dollardan 60 dollargacha baho-

landi. Muhandislik kommunikatsiyasi bo‘lgan parkda 1 kv.m., rezidentlar uchun taxminan 230 dollarga tushadi. Tataristonning Yelabuga rayonida joylashgan, sanoat qurilishi uchun mo‘ljallangan yer maydonining o‘rtacha narxi 320 rub/kv.m. Yelabuga industrial parkidan, park rezedentlari 1 kv.m. yerni 10 rub.ga sotib olishi mumkin. Xorij kompaniyalari grinfild parki hududidan o‘ziga tegishli yer maydonini 2-4 yil davomida mustaqil tayyorlasa, jami investitsiyadan 94 foizi qurilish ishlariga yo‘naltiriladi (loyihani tayyorlash, ekspertiza, ruxsat olish, materiallar va bajariladigan ishlarning qiymati). Yerning qiymati 2 foizni, texnologiya 4%ni tashkil etadi.

Vyetnamda industrial park rezidentlariga ko‘rsatiluvchi xizmatlar turiga quyidagilarni kiritish mumkin: sifatli infratuzilma xizmati; logistika xizmati; tayyor sanoat binolari; zona hududlarida bojxona posti. Bulardan tashqari, zona aniq ustuvor yo‘nalishlarga ega va ixtisoslashgan bo‘ladi. Vyetnamdagi investitsiyalar to‘g‘risidagi qonunda (Law on Investment № 59/2005/QH11, 01.07.06.), “rag‘batlantiradigan” va “rag‘batlantirish muhim” bo‘lgan investitsion sektorga quyidagilar kiradi: infratuzilma (temir yo‘l, yo‘llar, portlar); o‘rmon daraxtlarini qayta ishlash, qishloq xo‘jaligi; suvni qayta ishlash, tozalash; qayta tiklanuvchi energiya; axborot texnologiyalari; yangi materiallar ishlab chiqarish, energiya, yuqori texnologiyaga asoslangan mahsulot, biotexnologiya, AT mahsulotlarini ishlab chiqarish; eksportga yo‘naltirilgan mahsulot ishlab chiqarish, industrial parklarda ijtimoiy infratuzulma qurish.

Vyetnamda “Rag‘batlantirish muhim” bo‘lgan industrial zonalar va “Rag‘batlantirish muhim” bo‘lgan loyihalar ekspertlar yordamida ajratiladi va ularga imtiyozlar belgilanadi. Bunday imtiyozlarning ustun tomoni shundaki, ular biznes investitsiya kiritishga bormaydigan infratuzilma obyektlarini qurish, raqobatbardosh, eksportga yo‘naltirilgan mahsulot va yangi yuqori texnologiyaga asoslangan yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishga zamin yaratadi.

Frantsiyada yangi barpo etilayotgan kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashda bir qator imtiyozlar belgilangan. Sanoat va savdo sohasida yangidan tashkil etilgan kichik korxonalar uchun imtiyozlar:

- foyda solig‘idan 2 yilga to‘liq ozod etiladi, uchinchi yilda 75 foizga ozod etiladi, to‘rtinchi yilda 50 foizga, beshinchi yilda 25 foizga ozod etiladi;
- ko‘rilgan zararni 3 yilga orqaga va 5 yilga oldinga surishga ruxsat beriladi;
- tezkor amortizatsiyaning yuqori stavkasi mashina va uskunalar balans qiymatining 30 foizini tashkil etadi;
- yer uchastkasiga, bino va uskunalarga qo‘yilgan investitsiyaning 25 foizi subsidiyalanadi;
- soliq chegirmasi imtiyozi va imtiyozli qarz berish (keng tarqalgan imtiyozlar).

Yuqoridagi qiyosiy tahlillarga ko‘ra, O‘zbekistonda tashkil etilayotgan KSZlarning zaif tomonlarini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

*Birinchidan,* ularda texnologik, innovatsion rivojlanish darajasi pastligi.

*Ikkinchidan,* KSZlarni shahar, shahar cheti va tuman hududlarida joylashtirishda differentsial, ilmiy asoslangan yondashuv mavjud emasligi.

*Uchinchidan,* KSZlarni mahsulot ishlab chiqarishning texnologik darajasi, innovatsiyalardan foydalanish darajasiga ko‘ra shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash yo‘lga qo‘yilmaganligi.

*To‘rtinchidan,* KSZlarni ilmiy-tadqiqot institutlari va universitetlar bilan hamkorlik aloqasi yo‘lga qo‘yilmaganligi, texnopark, biznes inkubatorlarni tashkil etish va rivojlantirish yo‘lga qo‘yilmaganligi. Shuning uchun ham, KSZlarning texnologik va innovatsion rivojlanishini ta’minlovchi mexanizmlarni aniqlab, ularning faol ishlashini ta’minlash bugunning strategik masalalaridan biri hisoblanadi.

Rossiya Federatsiyasida industrial parklarni qo‘llab-quvvatlashda davlat-xususiy sektor sherikchiligidan O‘zbekiston sharoitida KSZlarni barpo etish va rivojlantirishda foydalanish maqsadga muvofiq, deb o‘ylaymiz.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik sanoat zonalarini barpo etishning asosiy vazifalari bo‘lib, hududlarda bo‘sh yotgan yer va binolardan sanoat ishlab chiqarishda foydalanish; sanoat ishlab chiqarishini yanada rivojlantirish; yangi qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish; hudud rahbarlarining sanoat siyosatini amalga oshirish (sanoat mahsulotlarining ustuvor turlarini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish); kichik sanoat zonalarining investitsion jozibadorligini oshirish orqali zonaga ilg‘or texnologiyaga asoslangan, raqobatbardosh, import o‘rnini bosuvchi va eksportbop mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yuvchi KBXT subyektlarini jalb etish; orij investitsiyasi ishtirokidagi korxonalarni zonaga jalb etish; zonadagi korxonalar o‘rtasida va hududda joylashgan boshqa korxonalar o‘rtasida kooperatsion aloqalarni rivojlantirish, zonada sanoat klasterlari shakllanishiga sharoit yaratish va boshqalar hisoblanadi.

Kichik sanoat zonalarida sanoat ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish juda muhim masalalardan biri hisoblanadi. Rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasiga ko‘ra, sanoat mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Sanoatning rivojlanishi qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat sanoati, yengil sanoat, qolaversa qolgan barcha tarmoq va sohalarning rivojlanishiga turtki beradi, aholini ish bilan ta’minlaydi va daromadini oshiradi.

Industrial zonalar va ularda joylashtiriladigan loyihalarni “rag‘batlantiriladigan” loyiha, “rag‘batlantiriladigan” zona, “rag‘batlantirilishi muhim” loyiha, “rag‘batlantirilishi muhim” zonalarga ajratib, ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning Vyetnam tajribasi ham juda qiziqarli deb hisoblaymiz. Kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash Frantsiya tajribasining bir qator bandlaridan respublikamizda KSZlarni, kichik biznesni rivojlantirishda foydalanishi samarali natijalarga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, kichik biznesni 2 yilga foyda solig‘idan ozod etilgandan keyingi soliqni bosqichma-bosqich kamaytirish, imtiyozli qarz berish, tezkor amortizatsiya, yangi texnologiyani joriy etish, energiyani tejash, import o‘rnini bosish, eksportni oshirishga olib keluvchi investitsiyalar uchun imtiyozlarni yaratish, KSZlarni barqaror, yuqori texnologiyaga asoslangan holda rivojlantirishga erishish mumkin bo‘lardi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” (22-maqsad). https://lex.uz/docs/5841063#5843878
2. Беленов О.Н., Смольянинова Т.Ю., Шурчкова Ю.В. Индустриальные парки: сущность и основные характеристики. // Региональная экономика и управление. Электронный научный журнал. –2013. –№ 1 (33). –С. 66.
3. Беркович М.И., Антипина Н.И. Особенности и классификация индустриальных парков: региональный аспект. // Вестник Костромского государственного технологического университета. –2013. № 1 (3). –С. 25-28.
4. Кузнецов В.П., Кузнецова С.Н., Лапаев Д.Н. Теоретические аспекты развития организационно-экономического механизма формирования промышленных парков. // Казань, изд-во Познание Института экономики, управления и права, 2014. –148 с.
5. Кузнецова С.Н., Кузнецов В.П. Методика оценки интегральной эффективности инвестиционных проектов в рамках промышленных парков: монография. // Мининский университет. Нижний Новгород. –2015. 200 с.
6. Mannapova Sh.E. O‘zbekiston kichik sanoat zonalarida investitsion faollikni oshirish yo‘nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: TMI, –2021. –125 b.;
7. Olimova N.X., Ortiqov A.B. Rivojlanayotgan mamlakatlarda erkin iqtisodiy hududlarning ahamiyati va ularga kiritilgan investitsiyalar tahlili. // “Mintaqa iqtisodiyotini investitsiyalashning moliyaviy-huquqiy va innovatsion jihatlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari Farg‘ona, FDU, 2020-y., –311-315 b.
8. Олимова Н.Х., Ортиков А.Б. Роль свободных экономических зон в развивающихся странах и анализ привлеченных инвестиций в их экономическое развитие. Материалы VIII Международной научно-практической конференции на тему: “Тенденции развития мировой торговли в XXI веке”, Российская Федерация, г.Пермь, –2019г., –349-354.
9. Смольянинова Т.Ю. Индустриалные парки в региональной экономике: механизм создания, преспективы развития. Автореферат диссертации. – Воронеж, 2015.
10. Yuldashev R. Kichik sanoat zonalari iqtisodiy taraqqiyot va xalq turmush farovonligining muhim vositasidir. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. –№4. –2017-y., avgust.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 1**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.